"O'ZBEKISTON MILLIY METROLOGIYA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI

"UZBEK NATIONAL INSTITUTE OF METROLOGY" STATE INSTITUTION

BUYRUQ

Toshkent sh.

БУЙРУҚ

Тошкент ш.

2023 y. «16» may dagi 89-sonli

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida”gi PF-6019-son Farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 2-martdagi 114-son qarori hamda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktorining 2023-yil 10-maydagi 8-son buyrug‘i ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Institutning faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini, ta’minlash, ularning buzilish xavfini aniqlash va oldini olishga qaratilgan “Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida” gi Nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;
3. Institut tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Institutda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish va uning ishlash samaradorligini baholash va monitoring qilish institut tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati xizmati bosh mutaxassisi Sh. Xomidov tomonidan Nizomga muvofiq amalga oshirilishi belgilansin.
5. Institut, bo‘lim, markaz, laboratoriya hamda filiallar boshliqlari, monopoliyaga qarshi komplayens tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun ish faoliyatida zarur bo‘lgan hujjatlar institutning korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati xizmatiga taqdim etilsin.
6. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktorining 2021-yil 24-noyabrdagi 105-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
7. Ushbu buyruq ijrosi ustidan nazorat qilish direktor o‘rinbosari M.B.Djalilov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor **L.F. Saidoripov**

"O‘z MMI" DM
2023 yil "16" may
89-sonli buyrug‘iga
1 ilova

O‘zbekiston milliy metrologiya instituti davlat muassasasida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-6019-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 114-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston milliy metrologiya instituti davlat muassasi (keyingi o‘rinlarda - institut)da monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritish va monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

monopoliyaga qarshi kurashish organi - O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi;

monopoliyaga qarshi komplayens - faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi;

monopoliyaga qarshi komplayens to‘g‘risidagi hisobot - davlat tashkilotlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini tashkil etish xaqidagi axborotni o‘z ichiga oladigan xujjat;

vakolatli bo‘linma - institut rahbariga bevosita buysunadigan, monopoliyaga qarshi komplayens tizimini ishlab chiqish, joriy etish va uning tegishli monitoringini, shuningdek, faoliyatini ta’minlash uchun mas’ul bo‘linma-institut tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi;

savdolar - tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

3. Quyidagilar monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Institut faoliyatining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlaritalablariga muvofiqligini ta’minlash va monitoring qilish;

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

Institut faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda tizim tashkilotlari rahbarlari o‘z vazifalarini bajarishi

jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlarni amalga oshirishining oldini olish;

Institut xodimlarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik xujjatlari talablari buzilishining oldini olish va ushbu yo‘nalish bo‘yicha ularni o‘qitish orqali malakalarini oshirish.

2-bob. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish

4. Institutda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta’minlash va monitoring qilish vakolatli bo‘linma-institut tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limiga yuklatiladi.

5. Vakolatli bo‘linma quyidagilarni amalga oshiradi:

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qiladi;

Faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qiladi (shu jumladan, raqobatni yoki tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazadi), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan choralarni ishlab chiqadi;

Raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni, shu jumladan, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik xujjatlari talablarining buzilishi xavflarini aniqlaydi, xavflar bilan bog‘liq holatlar hisobini yuritadi va yuzaga kelish ehtimolini belgilaydi;

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining faoliyat yuritishi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha boshqa tuzilmaviy bo‘linmalar va tizim tashkilotlaridan axborot va ma’lumotlar oladi;

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bilan bog‘liq ichki o‘rganish ishlarini o‘rnatilgan tartibda tashkil etadi;

Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo‘yicha o‘zaro axborot almashadi;

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida zarur hollarda “Yo‘l xaritasi” ni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta’minlaydi;

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik xujjatlari o‘zgarishlarini monitoring qiladi, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritadi;

Institut xodimlariga raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar beradi;

Monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan tashkillashtiriladigan monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy qilish va uning ishlash tartibi bo‘yicha seminarlar, konferensiyalar va amaliy treninglarda ishtirok etadi;

Institut tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning loyihalarini o‘rganadi va

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbariyatni xabardor qiladi;

Institutning tizim tashkilotlarida monopoliyaga qarshi komplayens tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini muvofiqlashtiradi;

har yili birinchi fevralga qadar monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotni Agentlik bosh direktoriga taqdim etadi.

6. Vakolatli bulinma institut direktoriga bo‘ysunadi va hisobdorbo‘ladi.

3-bob. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash

7. Institutda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi xavflarini aniqlash maqsadida vakolatli bo‘linma tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki bozorda raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy xujjatlarni o‘rganish;

Joriy etiladigan yangi cheklovlar, ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari, shuningdek, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni olish uchun qo‘shimchatalablar yoki shartlarni hamda texnik tartibga solish talablarining joriy etilishini o‘rganish;

Davlat xaridlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o‘rganish;

Aniqlangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

Institut tizim tashkilotlari o‘zining ustun holatini suiste’mol qilishga, monopol yuqori yoki monopol past narxlarni o‘rnatishga, kontragentlarga manfaatsiz va cheklovchi shartnoma shartlarini majburan qabul qildirishga, til biriktirishlar, kelishuvlar va kelishilgan harakatlarni aniqlash, boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tovar bozoriga kirishiga to‘siqlar yaratishga olib keladigan yoki olibkelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni o‘rganish;

8. Institut faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda, monopoliyaga qarshi komplayens tizimining samarali ishlashiga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshiradi.

9. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi bo‘yicha aniqlanadigan xavflar vakolatli bo‘linma tomonidan ilovaga muvofiq darajalar bo‘yicha taqsimlanadi.

10. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi xavflari bo‘yicha o‘tkazilgan baholash ishlari asosida vakolatli bo‘linma tomonidan xavflar tavsifi tuziladi, unga xavflarning paydo bulish sabablari va shartlarini baholash ishlari ham kiritiladi.

11. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish

xavflarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotga kiritiladi.

4-bob. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining ishlash samaradorligini baholash

12. Institutda monopoliyaga qarshi komplayens tizimining ishlash samaradorligini baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlar belgilanadi.

13. Vakolatli bo‘linma Institutda monopoliyaga qarshi komplayens tizimining erishilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta).

14. Institutda monopoliyaga qarshi komplayens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha axborot monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotga kiritiladi.

5-bob. Monopoliyaga qarshi komplayens xaqidagi xisobot

15. Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichigaqamrab oladi:

Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi xavflari bo‘yicha o‘tkazilgan baholash ishlarining natijalari hamda kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning bajarilishi;

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

16. Institut tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplayens bo‘yicha hisobot Instituting rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi kurashish organiga yuboriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

Mazkur nizomni qo‘llash bilan bog‘liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

KQK koplayens nazorati xizmati bosh mutaxasisi: **Sh. Xomidov**

Kiritildi

KQK “komplayens nazorat” xizmati Sh.Xomidov

Kelishildi

Direktor o‘rinbosari M.Djalilov

Direktor o‘rinbosari N.Raxmatillayev

Xodimlar bo‘limi boshlig‘i N.Yakubova

Bosh yuristkonsult A.D Sag'dullayev